# NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## Korxonalar va tashkilotlar

### (2019-yil 1-avgust holatiga)

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

**Ro'yxatdan o'tgan** — **14750 ta**

**Faoliyat ko'rsatayotgan** — **14597 ta**

**Yangi tashkil etilganlar** — **3740 ta**

2019-yilning yanvar-iyul oylarida viloyatda 3740 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o’tgan yilning shu davriga nisbatan 2424 taga ko’pdir.

Natijada, faoliyat ko’rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o’tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4121 ta (39,3 %) ga o’sgan hamda ularning umumiy soni 14597 tani tashkil etgan.

**Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o’zgarishlar amalga oshirilmoqda. O’z o’rnida, tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro’yxatidan o’tkazish va hisobga qo’yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro’yxatidan o’tkazish va hisobga qo’yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o’z shaxsiy biznesini yo’lga qo’yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo’lib xizmat qilmoqda.**

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

**(2019-yil 1-avgust holatiga)**

14750 tani
tashkil etdi

**Ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni, birlikda**




**37,5 %**

**O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati**

2019-yilning 1-avgust holatiga 14750 ta korxonalar va tashkilotlar ro’yxatdan o’tgan bo’lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 37,5 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha jamiga nisbatan 25,1 % savdo, 17,0 % sanoat, 8,0 % qurilish, 10,7 % qishloq, o’rmon va baliq xo’jaligi, 7,7 % yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar, 3,7 % tashish va saqlash, 1,7 % sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,2 % axborot va aloqa hamda 24,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

# Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (3703 ta) savdo, (2511 ta) sanoat, (1187 ta) qurilish, (1571 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (1132 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (547 ta) tashish va saqlash, (248 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, (174 ta) axborot va aloqa hamda (3677 ta) boshqa faoliyat turlariga to`g`ri kelmoqda.

# Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)





Faoliyat ko’rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 14597 tani tashkil etib, o’tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4121 ta (39,3 %) ga o’sgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha faoliyat ko’rsatayotgan korxona va tashkilotlar ulushi, %

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)



# Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Navoiy shahri (4014 ta), Karmana (2386 ta), Qiziltepa (1696 ta) va Xatirchi (1619 ta) tumanlari hissasiga to'gri keladi. Aksincha Uchquduq (635 ta), Konimex (461 ta) hamda Tomdi (265 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

# Yangi tashkil etilgan

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

**2019-yil yanvar-iyul oylarida 3740 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 2424 taga ko'pdir.**

## Yangi tashkil etilgan korxonalarning o'sish surati, birlikda




**2017-yil** **2018-yil** **2019-yil**

Yangi tashkil etilgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (1481ta), sanoat (804 ta), qurilish (250 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (287 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa (47 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (30 ta), tashish va saqlash (95 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

# Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

| | |
|---|---|
| Savdo | 1481 |
| Tashish va saqlash | 95 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 287 |
| Qurilish | 250 |
| Sanoat | 804 |
| Axborot va aloqa | 47 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 30 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 401 |
| Boshqa turlari | 345 |

# Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Navoiy shahri (801 ta), Karmana (482 ta), Qiziltepa (513 ta) va Xatirchi (531 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Nurota (210 ta), Konimex (113 ta) hamda Tomdi (80 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.**






# Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-avgust holatiga)

**Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlar soni 12528 tani tashkil qildi.**

## Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarning umumiy soni, birlikda

**Mas'uliyati cheklangan jamiyati**




**Xususiy korxona**




**Oilaviy korxona**




**Unitar korxona**

93

**Aksiyadorlik jamiyati**

19

**Boshqalar**

123

# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



175 ta

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni.**

**O'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,2 marta o'sgan.**

**Asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.**

2019-yil 1-avgust holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 175 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 96 taga yoki 2,2 martaga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda






# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda





Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko’rsatayotgan korxonalarning 108 tasi qo’shma, 67 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to’g'ri keladi.




## Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar soni, birlikda




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Navoiy shahar 64 ta (jamidagi ulushi 36,6 %), Karmana 36 ta (20,6 %), Nurota 18 ta (10,3 %) tumanida hamda Zarafshon shahar 11 tani (6,3 %) tashkil etgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Konimex 7 ta (4,0 %), Uchquduq 7 ta (4,0 %) va Tomdi 5 ta (2,9 %) tumanlarida tashkil etgan.

# Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va qishloq, o'rmon va baliq xojaligi faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda tashish va saqlash faoliyat turlariga to'g'ri keladi.



# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar




## 1 Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

**2019-yilning yanvar-iyul oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 59 tani tashkil etgan.**

**Bu ko’rsatkich esa o’tgan yilning shu davriga nisbatan 40 taga ko’paygan.**



Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 12 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 11 ta, Eron Islom Respublikasi 8 ta, Janubiy Koreya Respublikasi - 2 ta, Amerika Qo'shma Shtatlari 2 ta, Avstraliya 2 ta, Qozog`iston Respublikasi 3 ta, Afg’oniston Respublikasi 1 ta, Vengriya Respublikasi 2 ta, Hindiston Respublikasi 4 ta, Tojikiston Respublikasi 1 ta, Turkiya Respublikasi 4 ta, Turkmaniston Respublikasi 1 ta, Isroil Davlatlarida 1 ta, Indoneziya Respublikasi 2 ta, Qirg'iziston Respublikasi 1 ta, Gretsiya Respublikasi 1 ta, Ozarbayjon Respublikasi 1 tada korxonalar yangi tashkil etilgan.

# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni, birlikda

| Faoliyat turi | Soni |
|---|---|
| Savdo | 2 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 1 |
| Sanoat | 36 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 1 |
| Tashish va saqlash | 0 |
| Qurilish | 5 |
| Axborot va aloqa | 0 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 9 |
| Boshqa turlar | 5 |

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, asosan 36 ta sanoat, 5 ta qurilish, 2 ta savdo, 9 ta qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 1 ta yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 1 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 5 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to’g’ri keladi.

# Kichik korxona va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

## (2019-yil 1-avgust holatiga)



***2019-yil 1-avgust holatiga viloyatimizda faoliyat ko’rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 12455 tani tashkil etgan. Bu ko’rsatkich o’tgan yilga nisbatan 48,2 % ga oshgan.***

***2019-yil yanvar-iyul oylarida 3639 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o’tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 2517 taga ko’proqdir.***



| •Faoliyat yuritayitgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining eng katta ulushi | •Faoliyat yuritayitgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining eng kichik ulushi |
| --- | --- |
| •Navoiy shahri 28,0 % | •Navbahor tumani 8,9 % |
| •Karmana tumani 17,2 % | •Nurota tumani 7,5 % |
| •Qiziltepa tumani 11,7 % | •Uchquduq tumani 4,2 % |
| •Xatirchi tumani 10,5 % | •Konimex tumani 2,7 % |
| •Zarafshon shahri 7,8 % | •Tomdi tumani 1,5 % |

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat koʻrsatayotgan jami 12455 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 3662 ta (29,4 %) – savdo, 2457 ta (19,7 %) - sanoat, 1181 ta (9,5 %) - qurilish, 1525 ta (12,2 %) - qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi, 1120 ta (9,0 %) - yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar sohasi, 532 ta (4,3 %) - tashish va saqlash, 186 ta (1,5 %) - sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish, 162 ta (1,3 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 1630 tasi (13,1 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga toʻgʻri keladi.

## Faoliyat koʻrsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha ulushi



# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi

- Savdo — 40,7 %
- Sanoat — 22,0 %
- Qurilish — 6,8 %
- Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar — 7,9 %
- Tashish va saqlash — 2,6 %
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi — 11,0 %
- Axborot va aloqa — 1,3 %
- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish — 0,8 %
- Boshqa turlar — 6,9 %

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo 1480 ta, sanoat 802 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 399 ta, qurilish 249 ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi 287 ta tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa 47 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 29 ta hamda tashish va saqlashda 95 ta tashkil etilgan.

# Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni, birlikda




Eng ko’p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Navoiy shahri (765 ta), Xatirchi (529 ta), Qiziltepa (501 ta) va Karmana (470 ta) tumanlari hissasiga to’g'ri keladi. Eng kam Tomdi (78 ta), Konimex (108 ta) hamda Nurota (207 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

# Oilaviy korxonalar sonining oʻsish dinamikasi, birlikda

## 1-avgust holatiga







## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



# Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha ulushi




Faoliyat ko’rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 26,0 % yoki 535 tasi sanoat, 16,8 % yoki 346 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 14,8 % yoki 305 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 31,1 % yoki 640 tasi savdo, 1,2 % yoki 24 tasi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 1,2 % yoki 24 tasi qurilish, 1,0 % yoki 21 tasi tashish va saqlash, 0,9 % yoki 18 tasi axborot va aloqa hamda 7,0 % yoki 145 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Navoiy viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Tel.:71-230-84-56